

YANGI RENESSANS SHAROITIDA PEDAGOGIKA TA'LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM DOLZARB MASALALARI

Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich,

Nizomiy nomidagi TDPU umumiy pedagogika kafedrası mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor

Bugun yangi O'zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Respublikamiz Prezidentining 2020 yil 30 sentyabrda "O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi"da "Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak", tarzida strategik vazifa belgilab berildi. Ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri uchun poydevor yaratish o'z-o'zidan yangi Renessans sharoitida pedagogika ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishni taqozo etadi.

Kalit so'zlar: Renessans, pedagogika, modul'-kredit, dual ta'lim, xalqarolashuv, integratsiyalashuv, prognostika, ta'lim falsafasi

YUrtimizda birinchi Renessans pedagogikasi IX-XI asrlarni o'z ichiga olib, bu davrda nafaqat SHarq, balki G'arbda ham pedagogik fikrlar rivojlanishi uchun katta hissa qo'shgan Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy kabi olimlar faoliyat yuritishgan. yevropa va Amerikada XX asrning 50 yillarida paydo bo'lgan insonparvarlik pedagogikasi aslida ilk Uyg'onish davri pedagogikasining tub mohiyati va negizini tashkil etgan.

Ikkinchi Renessans pedagogikasining paydo bo'lishi va taraqqiyoti Amir Temur va temuriylar saltanati bilan bog'liqdir. Bu davrda yashab, ijod qilgan Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlarning faoliyati va ilmiy-pedagogik qarashlari g'oyat tahsinga sazovordir.

Mirzo Ulug'bek o'z davrida uchta (Buxoroda, Samarqandda, G'ijduvonda) madrasa qurdirib, oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilgan. Mirzo Ulug'bek madrasalaridagi ta'lim olish uch bosqichni (anda, aust, a'lo) o'z ichiga olib, diniy va dunyoviy bilimlarni mukammal o'rgatuvchi chinakam ma'nodagi oliy ta'lim muassasasi namunasi bo'lgan. E'tibor qaratilsa, bugun jahonda oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash bosqichlarining (bakalavr, magistr, doktorantura) yorqin namunasi Mirzo Ulug'bek tomonidan ilk bor amalga oshirilganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Mahbub ul-qulub, "Nazmul javohir" kabi asarlari chinakam ma'nodagi pedagogik asarlardir. Hazratning o'z davrida maktab va madrasalar qurilishiga homiylik qilishi bugungi kun ta'biri bilan aytganda, ta'lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklikning yorqin namunasi.

YUrtboshimiz ta'kidlab o'tganlaridek, mamlakatimizda "Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. SHu yo'lda ular o'zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular **"Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas"** degan hadisi sharifni hayotiy e'tiqod deb bildilar".

Ma'lumki, jadidlarning asosiy maqsadini "Turkistonni faqat ilmu-ma'rifatgina ijtimoiy-madaniy, siyosiy-iqtisodiy tanglikdan xalos etadi", – degan bosh g'oya tashkil etgan. Ana shu sababli ular o'z g'oyalarini xalq ichida keng targ'ib qilish maqsadida ona tilida ta'lim beradigan yangi usul maktablarini ochishgan, maktablar uchun darsliklar yozishgan, gazeta-jurnallar chop ettirishgan, teatr truppalarini tashkil etishgan. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim-tarbiya sohasiga innovatsiyalarni joriy etish yo'lida jonbozlik ko'rsatishgan. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonovlarning izdoshi sifatida Abdulla Avloniy jadid ma'rifatchiligini yanada yuqori bosqichga ko'tarish, ilmiy pedagogikani milliy ta'lim-tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari bilan boyitish, ta'limning xalqchilligi va ommaviyligiga erishish kabi masalalarga e'tibor qaratganligi yangi Renessans pedagogikasining ustuvor yo'nalishlari bilan hamohangdir. Abdulla Avloniy 1913 yilda nashr

ettirilgan “Turkiy Guliston yohud axloq” asarida “Pedagogiya”, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdir” deb, pedagogika faniga o’zbek ziyolilari orasida birinchi bo’lib, aniq va to’g’ri ta’rif berdi.

Ma’lumki, pedagogika fani jamiyat tomonidan belgilangan talablar asosida inson kapitalini yaratishga xizmat qiladi. Buning uchun esa, pedagogika fani jamiyat rivojining strategiyasi va ustuvor yo’nalishlariga to’liq mos keladigan ta’lim-tarbiya mazmuni, shakl, metod, vosita va texnologiyalarini ishlab chiqishi hamda uni amalga oshirish mexanizmlarini aniq belgilab berishi lozim. Afsuski, mustaqillik yillarida, ya’ni 2017 yilga qadar pedagogika fani va ilmiga ma’lum darajada o’zgartirishlar kiritishga urinishlar bo’lsada, aksariyat islohotlar o’zini oqlamadi. Buning asosiy sababi milliy pedagogika fanining yangi konseptual asoslarining ishlab chiqilmaganligi, yangiliklarni kiritishda fanning qonun, qonuniyatlari, tamoyillari va mezonlarini hisobga olinmaganligidir. SHu o’rinda haqli savol tug’iladi: yangi Renessans sharoitida pedagogika ta’lim sohasini rivojlantirishda qanday ustuvor jihatlariga e’tibor qaratish lozim? Qanday muammolar mavjud va ularni hal etish yo’llari nimalardan iborat?

Eng avvalo, shuni ta’kidlab o’tish lozimki, yangi Renessans sharoitida pedagogika ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ijtimoiy qonun va qonuniyatlarga tayanishi lozim. Jumladan, yangi Renessans pedagogikasi quyidagi qonunlar asosiga qurilishi lozim: milliy va umuminsoniy madaniyatga qadriyatli munosabat; ijtimoiy moslashuvchanlik, faollik va mobillik; to’rt uzviy xalqa(maktabgacha; umumiy o’rta va o’rta maxsus; professional va oliy ta’lim)ning mustahkamligi; shaxs hayotiy tajribasiga asoslangan (vitagen) ta’limning ustuvorligi.

Quyidagilar esa, YAngi Renessans pedagogikasining qonuniyatlari sifatida xizmat qiladi: ta’lim-tarbiyaning maqsadi yangi O’zbekistonni rivojlanish sur’ati, jamiyatimizning zamonaviy ehtiyojlariga mos bo’lishi; ta’lim-tarbiya mazmuni raqamli pedagogikaning taraqqiyoti bilan uyg’un tarzda belgilab olinishi; ta’lim-tarbiya sifati pedagogik ta’sirning intensivligi va ta’lim natijalarining shaffofligiga asoslanishi; ta’lim-tarbiya metodlari interfaollik, kooperativlikka asoslanishi; ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarishda sub’yekt-sub’yekt munosabatlari doirasida korreksion ta’sirning jadalligini hisobga olish; ta’lim-tarbiya jarayonida rag’batlantirish besh tayanch ustunning (tarbiyachi, o’qituvchi, professor-o’qituvchi, ilmiy-ijodiy ziyolilar, ota-onalar) virtual-pedagogik nazorati va yangi hayot sub’yektlarining (tarbiyalanuvchi, o’quvchi, talaba) internal (ichki) motivlariga bog’liqligi.

Ayni paytda yuqorida qayd etib o’tilgan yangi Renessans pedagogikasi qonun va qonuniyatlariga asoslangan holda pedagogika ta’lim sohasini rivojlantirishda quyidagi muammolarga jiddiy e’tibor qaratilishi hamda ularni hal etish yo’llari jadal tarzda ishlab chiqilishi lozim:

Bugungi kunda pedagogika ta’lim sohasida ham kredit-modul tizimi asosida o’quv jarayoni amalga oshirilmoqda. Biroq mazkur jarayonni tashkil etish va boshqarishda kreditlar to’plash masalasiga katta e’tibor qaratgan holda, modulli ta’lim texnologiyasiga asoslangan holda o’qitish mazmunini loyihalash e’tibordan chetda qolmoqda. Ta’lim mazmunini takomillashtirmasdan esa, o’qitish sifatiga erishib bo’lmaydi. Buning uchun kredit-modul tizimiga asoslangan ta’lim mazmuni modulli yondashuvning tamoyillari orqali tizimlashtirilishi maqsadga muvofiq. Xuddi shunday o’quv jarayonini amalga oshirish modulli ta’lim texnologiyasi talablariga to’liq javob berishi lozim. Biror-bir ta’lim tizimining “shaklga asoslanib” joriy etilishi ko’zlangan natija bermaydi. YUqorida ta’kidlab o’tganimizdek, pedagogika ta’lim sohasiga joriy etilayotgan yangi tizimga mos ravishda o’qitish mazmuni ham tubdan o’zgarishi kerak.

SHu o’rinda yana bir jihatga e’tiborni qaratish lozim. Ilg’or xorijiy tajribalar shuni ko’rsatadiki, kredit-modul tizimiga asoslangan o’quv rejalarida talabalarining 1 semestr davomida o’qiydigan fan (modul)lari soni 4-5 tadan oshib ketmaydi. Amaldagi mavjud o’quv rejalarida esa, talabalarining bir semestrda o’qiydigan fanlari soni 10-12 tagachani tashkil etadi. Fan(modul)lar sonining sun’iy oshirilishi o’z navbatida, talabalarining o’quv faoliyati natijalariga ham salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Talabalarining mustaqil ta’limini tashkil etish kredit-modul’ tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Kredit-modul tizimining bosh g’oyasi – “o’rganishga o’rgatish”, “bajarishga o’rgatish” mustaqil ta’lim orqali amalga oshadi. CHunki Kredit to’plash va ko’chirishning yevropa tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System – ECTS) talablariga ko’ra, modullar bo’yicha o’quv yuklamasining 60 foizini mustaqil ta’lim tashkil etishi lozim. SHuningdek, talabalarining mustaqil ta’limini tashkil etish bo’yicha muvaqqat Nizomning ham ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Pedagogika ta'lim sohasiga dual ta'limni joriy etish masalasiga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Aslida, talabalarining o'quv va malakaviy amaliyotlarini o'quv yili davomida haftasiga 2 kun umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tkazilishi bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish, amaliy faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogika ta'lim sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish ham talab darajasida emas. Mazkur jarayon moddiy-texnik ta'minotning yetarli bo'lishi bilangina o'lchanmaydi. Mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, maksimal natijalarga erishish uchun rahbar-xodimlarda menejerlik kompetensiyasi va tashkilotchilik sifatлари rivojlangan bo'lishi lozim. Albatta, ushbu jarayon samaradorligini ta'minlash o'z navbatida, professor-o'qituvchilarda raqamli kompetensiyani rivojlan-tirishni taqozo etadi. Bu orqali esa, bo'lajak pedagoglarda axborot-kommunikativ kompetentlik va raqamli savodxonlikni shakllantirishga erishiladi.

Pedagogika ta'lim sohasida xorijiy tillarni o'qitish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilishi kerak. Mamlakatimizda muhtaram yurtboshimizning bevosita tashabbusi bilan tashkil etilgan Prezident maktablari va ixtisoslashgan maktablarda, umuman umumiy o'rta ta'lim tizimida faoliyat yuritishi uchun bo'lajak pedagoglar kamida ikkita xorijiy tilni bilishi lozim. Ona tilini mukammal biladigan va xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirgan o'qituvchi o'zi dars beradigan fani bo'yicha yangiliklardan muntazam xabardor bo'lib boradi hamda ularni ta'lim-tarbiya jarayonlariga samarali tatbiq etadi. Buning uchun oliy ta'lim muassasalarida til muhitini yaratishga alohida e'tibor qaratish lozim. Afsuski, hatto pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ochilgan qo'shma fakul'tetlarda ham "til muhiti" samarali yo'lga qo'yilmagan. Mazkur fakul'tetlarda ta'lim tiliga mos ravishda infratuzillma yaratilishi lozim.

Pedagogika ta'lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarida belgilab berilgan yana bir masala – pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Mazkur masalani muvaffaqiyatli hal etish uchun zaruriy choralarni ko'rish orqali motivatsion yo'nalganlikka ega yangi avlod "kelajak muallimlari"ni tayyorlash imkoniyati mavjud. Umumiy o'rta ta'limning o'rta bosqichi (X–XI sinflar)da pedagogik sinflarni tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish va jadal amalga oshirish lozim.

Pedagogik ta'lim sohasining jozibadorligini oshirish uchun mazkur yo'nalishda ta'lim marketingini samarali yo'lga qo'yish lozim. Moliyaviy va akademik mustaqillikka bosqichma-bosqich o'tish uchun pedagogika oliy ta'lim muassasalarida xalqarolashuv va integratsiyalashuv jarayonlarini kuchaytirish lozim. Mazkur oliy ta'lim muassasalarida xorijiy hamkorlik masalasi ham qoniqarli deb bo'lmaydi. Xorijiy tajribalarni o'rganish orqali pedagogika oliy ta'lim muassasalari qoshida maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumiy o'rta ta'lim maktablarini tashkil etish ham byudjetdan tashqari mablag'lar ishlab topish, ham dual pedagogik ta'limni amalga oshirish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi joriy etilishiga qaramasdan, professor-o'qituvchilarning vaqt me'yorlari yangi tizimga moslashtirilmagan. Mazkur holat ham kredit-modul tizimini amaliyotga joriy etishda murakkabliklarni keltirib chiqaradi. O'quv yuklamalarining haddan ziyod ko'pligi talabalar bilan amalga oshiriladigan maslahat – kontakt soatlarini to'liq bajarish imkonini bermaydi. Kontakt soatlari esa ayni paytda professor-o'qituvchining o'quv yuklamasi tarkibiga kirmaydi. Buning uchun kredit-modul tizimida oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot ishlarini belgilash qoidalarini yangidan ishlab chiqish lozim.

Zamonaviy iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlar va kredit-modul tizimining imkoniyatlarini hisobga olgan holda, oliy pedagogik ta'limning bakalavriat bosqichida ikki va undan ortiq ixtisoslik bo'yicha mutaxassislar tayyorlash amaliyotini joriy etishga alohida ehtiyoj mavjud. Prognostik yondashuv asosida pedagogik kadrlar tayyorlash ehtiyojlarini real talablar bilan muvofiqlashtirib borish, pedagogika oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilarning talablari o'rtasidagi bo'shliq bartaraf qilinishi lozim. Ayni paytda umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida "Tabiiy fanlar" o'quv predmetini o'qitish yo'lga qo'yilgan bo'lsa ham, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida integrallashgan "tabiiy fanlar o'qituvchisi" ixtisosligi bo'yicha kadrlar tayyorlanmaydi. Bu esa, boshlang'ich sinflarda mazkur fanni o'qitish samarali amalga oshirish uchun pedagogik xatar(risk)ning ortishiga olib keladi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida istiqbolli yo'nalishlarni o'rganish va belgilab berishga xizmat qiluvchi "Pedagogik prognostika va ta'lim falsafasi" ilmiy laboratoriyalarini tashkil etishga ayni paytda alohida zaruriyat mavjud. YUqorida ta'kidlab o'tganimizdek, pedagogika oliy ta'lim muassasalari har jihatdan umumiy

o'rta ta'limda amalga oshirilayotgan islohotlardan "o'zib" ketishi va innovatsion jarayonlarga mobillashgan bo'lishi lozim. Buning uchun pedagogik prognostik tadqiqotlar o'tkazilishi va uning natijalari monitoring qilib borilishi lozim. Aynan mazkur jarayon orqali oliy va umumiy o'rta ta'lim kooperatsiyasini ta'minlashga ham erishish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Abdullayeva O. "O'zbekistonda yangi uyg'onish – uchinchi Renessans" / "Xalq so'zi" gazetasi, 2020 yil 2 sentyabr', onlayn soni.
2. Qodirov O. Yangilanayotgan O'zbekiston – uchinchi Renessans. // Proceedings of Global Technovation 2 nd International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from London, U.K. December 28th, 2020. <https://conferencepublication.com>.
3. Pedagogika ensiklopediya. I jild. / Mas'ul muharrir R.Safarova. – T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.
4. Pedagogika professional'nogo obrazovaniya: Ucheb.posobiye dlya stud. vissh. ped. ucheb. zavedeniy / ye.P.Belozersev, A.D.Goneyev, A.G.Pashkov i dr.; Pod. red. V.A. Slastyonina. – M.: Izdatel'skiy sentr «Akademiya», 2004. – 368 s.
5. Pedagogicheskiy slovar' / Pod.red. V.I.Zagvyazinskogo, A.F.Zakirovoy. – M.: «Akademiya», 2008. – S.41